

«YASHIL» IQTISODIYOT – TARAQQIYOT KAFOLATI



Butun dunyo davlatlari qatori, mamlakatimizning ham «yashil» iqtisodiyotga o'tishi masalasi eng muhim hayotiy zaruriyat bo'lib turibdi. Ko'pchilik vatandoshlar «yashil» iqtisodiyotni energetika sohasini isloh qilishdan iborat deb hisoblashadi. Vaholanki, uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, ekologik barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali va keng qamrovli chora-tadbirlar ham kiradi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida «yashil» texnologiyalarni joriy etish aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida shaharlardagi yashash qulaylashadi, bolalar o'limi qisqaradi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi. Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mintaqalarida hatto tashqi migratsiya oqimlari qisqarib, inson kapitalining rivojlanishi kuzatilgan.

Inson faoliyatining tabiatga ta'siri darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich – «ekologik iz» taraqqiyotni belgilab beruvchi obyektlarni barpo etish, iste'mol uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadida qanchalik ko'p miqdorda mahsuldor yer va toza ichimlik suvidan foydalanayotganimiz hamda chiqindilar hosil qilayotganimizni ifoda etadi. «Yashil» iqtisodiyot o'ziga xos iqtisodiy model sifatida shu talablarga javob berishga qaratilgan. Tabiat bilan uyg'unlikda faoliyat yuritish, resurslardan barqaror va samarali foydalanish, energiya manbalariga tegishli muammolarni hal etish va ekologik xavflarni minimallashtirish – bularning bari «yashil» iqtisodiyotning asosiy maqsadlari bo'lib, ular barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga ham

qo'shilgan. Har ikkala hujjat milliy hukumatlar zimmasiga «yashil taraqqiyot» talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Bu, ertami-kechmi, «yashil» iqtisodiyotga baribir o'tishimiz kerakligini anglatadi.

Hamyurtlarimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklari atroflicha o'rganilib, bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda, bu boradagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2025-yil yurtimizda «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e'lon qilindi. Prezidentimizning «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi va unda bir qator vazifalar belgilab berildi.

Farmonga ko'ra, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I va II toifalarga mansub korxonalarning ekologik ishlab chiqarishga o'tishdagi harakatlarini rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan boshlab quyidagi tartib joriy etilishi nazarda tutildi:

***birinchi bosqichda** – atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalarini o'rnatgan korxonalarga:*

tabiatga zarar yetkazish bo'yicha kompensatsiya to'lovlaridan shakllangan qarzdorlikdan voz kechish;

tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining

50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;

***ikkinchi bosqichda** – monitoring stansiyalarini o'rnatgan korxona kelgusi bir yil davomida chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o'rnatganda, tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 70 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish belgilangan.*

Bunda mazkur bandeda nazarda tutilgan imtiyozlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan beriladigan xulosa asosida taqdim etiladi.

2025-yil 1-noyabrga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan xo'jalik faoliyatini yurituvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan ekologik zararlarni majburiy sug'urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilangan. Shuningdek, farmon ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish «O'zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklangan. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilishi belgilangan.

«Yashil» iqtisodiyot innovatsion va ekologik tozalikka asoslangan model hamdir. Chunki u energiya va resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini ishga soladi. Bu ishlab chiqarish jarayonlarida xomashyo va energiya sarfini kamaytirish orqali moliyaviy tomondan foyda berishi ham mumkin.

O'zbekistonning energetika siyosatida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalishlar ko'zda tutilgan. Moliyalashtirish sohasida «yashil» moliyalashtirish konsepsiyasi joriy qilindi va bu davlatning «yashil» iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi muhim qadamlaridan biridir. «Yashil» iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiya miqdori ham yuqori sur'atlarda ko'paymoqda.

«Yashil» iqtisodiyot konsepsiyasining maqsadi – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir vaqtda, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Bu tabiatga zarar yetkazmasdan va kelajak avlodlar uchun barqaror muhitni saqlab qolishga qaratilgan iqtisodiy tizimni barpo etishdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatimizda har yili 200 million tup daraxt va buta ekilib, yashillik miqyosini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. Xususan, ekologik muhit eng og'ir bo'lgan Orolbo'yida hozirgi paytda yashil qoplama 2 million gektardan oshdi.

Yurtimizda quyosh energiyasi sohasida investitsiyalar aniq dinamika bilan o'smoqda. Masalan, Namangan viloyatidagi quyosh stansiyasi va Toshkent viloyatidagi quyosh panellari loyihalari amalga oshirilgan. Bunday loyihalar mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirishga va uglerod emissiyasini kamaytirishga katta hissa qo'shadi.

Mamlakatimizning energetika sektoridagi islohotlar, yangilanadigan energiya manbalariga sarmoyalar kiritish, quyosh va shamol energiyasini faol joriy etish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – bularning barchasi yurtimiz iqtisodiyotini ekologik jihatdan tozalash va uzoq muddatda barqarorlashtirish uchun qo'yilayotgan muhim strategik qadamlardir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, respublikamizning «yashil» iqtisodiyotga o'tish jarayoni eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ilg'or tashabbuslar bilan quvvatlanmoqda. Uni amaliyotga tatbiq etish mamlakatimizning ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, tabiiy resurslarni tejash imkonini berish bilan bir qatorda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarining rivojlanishida, aholimiz farovonligining yanada oshishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

«ЯШИЛ» ИҚТИСОДИЁТ – ТАРАҚҚИЁТ КАФОЛАТИ

Бутун дунё давлатлари катори, мамлакатимизнинг ҳам «яшил» иқтисодиётга ўтиши масаласи энг муҳим ҳаётий зарурият бўлиб турибди. Кўпчилик ватандошлар «яшил» иқтисодиётни энергетика соҳасини ислоҳ қилишдан иборат деб ҳисоблашади. Ваҳоланки, унинг ичига тоза ичимлик суви муаммолари, озиқ-овқат хавфсизлиги, қишлоқ хўжалигидаги инновациялар, экологик барқарор шаҳарлар, чиқиндиларни оқилона бошқариш, ўрмон ҳудудларини кенгайтириш, чўлланишни қисқартириш каби кўп қиррали ва кенг қамровли чора-тадбирлар ҳам киради.

Жаҳон тажрибасидан маълумки, иқтисодиётнинг турли тармоқларида «яшил» технологияларни жорий этиш аҳоли фаровонлигига ижобий таъсир кўрсатади. Бунинг натижасида шаҳарлардаги яшаш қулайлашади, болалар ўлими қисқаради, ўртача умр кўриш давомийлиги узаяди. Лотин Америкаси ва Африканинг айрим минтақаларида ҳатто ташқи миграция оқимлари қисқариб, инсон капиталининг ривожланиши кузатилган.

Инсон фаолиятининг табиатга таъсири даражасини акс эттирувчи кўрсаткич – «экологик из» тараққиётни белгилаб берувчи объектларни барпо этиш, истеъмол учун зарур неъматларни ишлаб чиқариш мақсадида қанчалик кўп миқдорда маҳсулдор ер ва тоза ичимлик сувидан фойдаланаётганимиз ҳамда чиқиндилар ҳосил қилаётганимизни ифода этади. «Яшил» иқтисодиёт ўзига хос иқтисодий модель сифатида шу талабларга жавоб беришга қаратилган. Табиат билан уйғунликда фаолият юритиш, ресурслардан барқарор ва самарали фойдаланиш, энергия манбаларига тегишли муаммоларни ҳал этиш ва экологик хавфларни минималлаштириш – буларнинг бари «яшил» иқтисодиётнинг асосий мақсадлари бўлиб, улар барқарор ривожланишга эришиш учун зарур шарт-шароитлар яратишга ёрдам беради.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон БМТнинг Барқарор тараққиёт мақсадлари ҳамда Иқлим бўйича Париж битимига ҳам қўшилган. Ҳар иккала ҳужжат миллий ҳукуматлар зиммасига «яшил тараққиёт» талабларини бажариш мажбуриятини юклайди. Бу, эртами-кечми, «яшил» иқтисодиётга барибир ўтишимиз кераклигини англатади.

Ҳамюртларимизнинг фикр-мулоҳазалари, хоҳиш-истаклари атрофлича ўрганилиб, билдирилган тавсиялардан келиб чиққан ҳолда, бу борадаги ишларни янги, янада юксак босқичга кўтариш мақсадида 2025 йил юртимизда «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил» иқтисодиёт йили» деб эълон қилинди. Президентимизнинг «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил» иқтисодиёт йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги фармони қабул қилинди ва унда бир қатор вазифалар белгилаб берилди.

Фармонга кўра, атроф-муҳитга таъсир кўрсатиш бўйича II ва III тоифаларга мансуб корхоналарнинг экологик ишлаб чиқаришга ўтишдаги ҳаракатларини рағбатлантириш мақсадида 2025 йил 1 августдан бошлаб қуйидаги тартиб жорий этилиши назарда тутилди:

***биринчи босқичда** – атмосфера ҳавоси ифлосланиши фон мониторинги станцияларини ўрнатган корхоналарга:*

табиатга зарар етказиш бўйича компенсация тўловларидан шаклланди қарздорликдан воз кечиш;

табиатга зарар етказиш бўйича республика бюджетига йўналтириладиган компенсация тўловларининг

50 фоизигача бўлган қисмини икки йил давомида қайтариш;

***иккинчи босқичда** – мониторинг станцияларини ўрнатган корхона келгуси бир йил давомида чанг-газ ва локал сув тозалаш ускуналарини ўрнатганда, табиатга зарар етказиш бўйича республика бюджетига йўналтириладиган компенсация тўловларининг 70 фоизигача бўлган қисмини икки йил давомида қайтариш белгиланган.*

Бунда мазкур бандда назарда тутилган имтиёзлар давлат хизматлари марказлари ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан бериладиган ҳулоса асосида тақдим этилади.

2025 йил 1 ноябрга қадар Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан ҳўжалик фаолиятини юритувчи корхона ва ташкилотлар томонидан етказилган экологик зарарларни мажбурий суғурталаш тизимини босқичма-босқич жорий этиш бўйича қонун лойиҳаси ишлаб чиқилади.

Фармон ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб вазирлик ва идоралар раҳбарлари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари белгиланган. Шунингдек, фармон ижросини мунтазам равишда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини амалга ошириш бўйича Республика комиссияси зиммасига юкланган. Амалга оширилган чора-тадбирлар тўғрисида ҳар чоракда Ўзбекистон Республикаси Президентига ахборот киритиб борилиши белгиланган.

«Яшил» иқтисодиёт инновацион ва экологик тозалikka асосланган модель ҳамдир. Чунки у энергия ва ресурслардан самарали фойдаланиш жараёнларини ишга солади. Бу ишлаб чиқариш жараёнларида хомашё ва

энергия сарфини камайтириш орқали молиявий томондан фойда бериши ҳам мумкин.

Ўзбекистоннинг энергетика сиёсатида энергия самарадорлигини оширишга қаратилган йўналишлар кўзда тутилган. Молиялаштириш соҳасида «яшил» молиялаштириш концепцияси жорий қилинди ва бу давлатнинг «яшил» иқтисодиётга ўтиш йўлидаги муҳим қадамларидан биридир. «Яшил» иқтисодиётга йўналтирилган инвестиция миқдори ҳам юқори суръатларда кўпаймоқда.

«Яшил» иқтисодиёт концепциясининг мақсади – барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва инвестициялар фаоллигини ошириш билан бир вақтда, атроф-муҳит муҳофазаси ва ижтимоий интеграция сифатини яхшилаш ҳисобланади. Бу табиатга зарар етказмасдан ва келажак авлодлар учун барқарор муҳитни сақлаб қолишга қаратилган иқтисодий тизимни барпо этишдир.

Президентимиз таъкидлаганидек, мамлакатимизда ҳар йили 200 миллион туп дарахт ва бута экилиб, яшиллик миқёсини 2030 йилгача 30 фоизга етказиш мақсади белгиланган. Хусусан, экологик муҳит энг оғир бўлган Оролбўйида ҳозирги пайтда яшил қоплама 2 миллион гектардан ошди.

Юртимизда қуёш энергияси соҳасида инвестициялар аниқ динамика билан ўсмоқда. Масалан, Наманган вилоятидаги қуёш станцияси ва Тошкент вилоятидаги қуёш панеллари лойиҳалари амалга оширилган. Бундай лойиҳалар мамлакатимизда энергия самарадорлигини оширишга ва углерод эмиссиясини камайтиришга катта ҳисса қўшади.

Мамлакатимизнинг энергетика секторидаги ислохотлар, янгиланадиган энергия манбаларига сармоялар киритиш, қуёш ва шамол энергиясини фаол жорий этиш, иқлим ўзгаришига қарши курашиш учун халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик – буларнинг барчаси юртимиз иқтисодиётини экологик жиҳатдан тозалаш ва узоқ муддатда барқарорлаштириш учун қўйилаётган муҳим стратегик қадамлардир.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, республикаимизнинг «яшил» иқтисодиётга ўтиш жараёни энг муҳим ижтимоий ва иқтисодий муаммоларни ҳал қилишга қаратилган илғор ташаббуслар билан қувватланмоқда. Уни амалиётга татбиқ этиш мамлакатимизнинг экологик хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлаш, табиий ресурсларни тежаш имконини бериш билан бир қаторда, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳаларининг ривожланишида, аҳолимиз фаровонлигининг янада ошишида алоҳида аҳамият касб этади.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.